



SIYOSIY PARTIYALAR SIYOSIY ELITALAR REKRUTSIYASINING ASOSIY OMILI

Ochilov Jasur To'lqin o'g'li

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Received: 17th November 2023

Accepted: 21th November 2023

Online: 22th November 2023

KEY WORDS

Davlat, jamiyat, Vatan, siyosat, normativ, partiya, dastur, saylov, g'oya, parlament, millat, demokratiya, mafkura, prinsp, konstitutsiya, huquq, plyuralizm, madaniyat, mafkura, fuqaro, islohot, tamoyil.

ABSTRACT

Siyosiy partiyalar siyosiy elitalar rekrutsiyasining asosiy omili, siyosiy elitalar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Siyosiy elita tushmachasi. Politologik adabiyotlarda "siyosiy sinf", "hukmron sinf", "boshqaruvchi sinf singari turli nomlarga ega siyosiy elitalar bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo'shuvchi ijtimoiy guruh hisoblanadi. Zamonaviylashayotgan jamiyatlarda islohotchilarning muvaffaqiyatlari to'g'ridan-to'g'ri ana shu guruh salohiyati, irodasi va tashabbusiga bog'lanadi. Xo'sh, siyosiy elita nima? Uning siyosiy jarayonlarga belgilovchi ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi? "Elita"ning lug'aviy ma'nosi qanday tarjima qilinadi. Ya'ni bu so'z fransuzchadan "saralangan", "saylangan", deb narsalar, hodisalar, insonlarda eng yaxshi xususiyatlar, sifatlar mujassam etganini anglatadi. "Siyosiy elita" siyosiy nazariyada muayyan sifatlarga yoki hokimiyatga kuchli ta'sirga ega ijtimoiy guruhga mansublikat bildiradi. Siyosiy elita jamiyat rivojini maqsadlari va yo'nalishlarini ishlab chiqadi. U strategik jihatdan muhim qarorlarni qabul qiladi va ularni amalga oshirish uchun davlat hokimiyati egalik qilayotgan barcha manbalarni ishga soladi. Jamiyat eng qadimgi davrlardanoq aslzodalar, oq suyaklar, oliy tabaqaga va xalqqa ajratib kelingan. Bunday ajratish hayotda mavjud asl holatni aks ettirgan. Jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz qalamiga mansub asarlarning aksariyatida kelib chiqishi (zoti), nasabi, aql zakovati, jasorati bois xalq mehrini qozongan va xalq boshida turgan qahramonlar, beklar, shohlar obrazlari tahlil qilinadi.

Ammo, faqat XIX asr oxiriga kelib elitalarning kelib chiqishi, jamiyatdagi omi, vazifalari haqidagi qarashlar ilmiy tahlil tusini oladi. Deyarli bir vaqtda ushbu masalalar haqida o'z fikrini bayon etgan italiyalik ikki olim G.Moska va V.Pareto va nemis olimi R.Mixels elitalarni siyosatning alohida subyekti sifatida ajratib, uning amaliy faoliyatini organa boshladilar.



Ularning ijodi elitologiya faniga asos soldi va unda “makiavelli makrabi” yo‘nalishini tashkil etdi. Siyosiy partiyalar- ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. Dastlabki Siyosiy partiyalar 17-18-asrlar inqiloblari davrida paydo bo‘la boshlagan bo‘lsada, Siyosiy partiyalarga o‘xshash jamoa, tashkilotlar qadimdan mavjud edi. Afina geteriyalari, Rim optimat va populyarlari antik davrda Siyosiy partiyalar vazifasini bajargan.

Siyosiy partiya - bu jamiyatdagi ma‘lum bir guruhlar, toifalar, qatlamlarning qiziqishlarini aks ettiradigan hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat ishlarida qatnashish orqali ularni amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadigan kishilar birligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy partiyalar mamlakatdagi muayyan aholining yoki guruhlarining manfaatlarini, maqsadlarini va intilishlarini ifodalaydigan hamda qonuniy vositalar yordamida ularni davlat siyosti darajasiga ko‘tara oladigan jamiyatdagi yagona kuch hisoblanadi. Aynan mana shu jihati, ya‘ni siyosiy hayotdagi bevosita ishtiroki bilan o‘z manfaatlarini ifodalashi orqali siyosiy partiyalar boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlanadi.

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy tizimining muhim ajralmas qismidir. Davlat va huquq nazariyasidan bizga ma‘lumki, siyosiy tizim - bu xalq irodasiga muvofiq davlatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy institutlar, siyosiy normalar, prinsplar, jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va mushtarak yig‘indisi. Ramziy ma‘noda aytganda, siyosiy tizim davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi siyosiy muassasalar yoki tashkilotlarning harakatlanish maydonidir, ushbu siyosiy maydonning barqarorligini mustahkamlovchi siyosiy poydevor - siyosiy partiyalardir. Zero, siyosiy partiyalar hokimiyat konstitutsiyaviy-huquqiy tuzilishining barcha bo‘g‘inlariga singib ketgan holda nafaqat uni shakllantirishda, balki faoliyat yuritishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydilar.

Jamiyatda turli xil patriyalarning mavjud bo‘lishi natijasida siyosiy fikr , qarashlarning xilma-xilligi vujudga keladi. “Plyuralizm, ya‘ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi ma‘rifiy jamiyatga xos bo‘lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi”. Siyosiy partiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari qonuniy raqobat olib borilishi sharoitida ijobiy natijalarga olib keladi hamda davlat, jamiyat rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Bugungi kunda, aynan shu sababli, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mamlakatdagi siyosiy raqobatni rivojlantirish asosiy maqsad, yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Siyosiy partiyalar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy siyosiy kuch hisoblanadi. Zero, parlamentarizmning rivojlanib borishi siyosiy partiyalar o‘rtasida sog‘lom siyosiy raqobatni vujudga keltiradi. Bu esa jamiyatimizda saylov erkinligi, so‘z erkinligi, ovozlarni halolik bilan sanash, ijtimoiy fikrdan bahramand bo‘lish, ijtimoiy manfaatlar integratsiyasi hamda erkin, demokratik saylovlarda siyosiy kuchlar raqobati kabi qat‘iy tizimlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Insoniyat siyosiy ongining davr bilan hamnafas rivojlanib borishi siyosiy jarayonlar, siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirishga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. “Zamonaviy fuqarolik jamiyatining bardavom faoliyati bir necha, serqirra jamoat tashkilotlari bilan uzviy aloqani talab etadi, ularning eng asosiysi siyosiy partiyalardir”. Siyosiy partiyalar



jamiyat tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarida ta'lim tizimiga, yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Quvonarli jihati shundaki, bugungi kunda yoshlarimiz barcha jabhalarida bo'lgani kabi siyosiy partiyalar faoliyatida ham alohida o'ringa ega bo'lib borishmoqda. Har bir siyosiy partiyada yoshlar qanoti faoliyat olib borayotganligi buning yaqqol tasdig'idir, halol raqobat tushunchasi bilan uzviy bog'liq.¹

Zamonaviy jamiyatlarning tuzilishi va mazmunidagi o'zgarishlar "hukmran sinf"ning jamiyatdagi mavqeini ham, uning vazifalarini ham, u tayanadigan resurslarini ham, elitalarni jipslashtiruvchi omillarni ham o'zgartirib yubordi. Elitalarning zamonaviy konsepsiyalari ana shu jarayonlarni aks ettirishga harakat qiladi. Shu tariqa, elitalarga qadriyat, institutsional, reputatsion yondashuvlar vujudga keldi. Elitalar pluralizmi nazariyasi ana shu yondashuvlarni umumlashtirib, hozirgi vaqtda jamiyatda xilma-xil elitalar faoliyat ko'rsatishi (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy) va birortasi mustaqil holda, yolg'iz o'zi hokimiyatni amalga oshira olmasligini aniqladi. Avval siyosiy resurslar (pul, boylik, maqom) bir qo'lda aristokratiyada toplangan bo'lsa, zamonaviy jamiyat, siyosiy tengsizlikni saqlagan holda, resurslarni butun jamiyatga tarqatib yubordi. Jamiyatda xilma-xil va ko'p sonli elitalar guruhlarini shakllantirdi. Bu esa, demokratiya bilan elitarlikni yarashtirar edi.

Elitaning turlari va funksiyalari. Shunday qilib, elitalarning mavjudligi obyektiv hol, Elitalarning mavjudligi jamiyatda boshqa ijtimoiy guruhlarining mavjudligi singari juda muhim. Siyosiy elitalar esa, jamiyat siyosiy xayotini professional asosda boshqarish uchun juda zarur.

Siyosiy elita hokimiyat vositalariga ega bo'lgan odamlar guruhi. U murakkab tuzilishga ega. Siyosiy elita o'z ichida yana bir qancha turlarga bo'linadi. Bunda asosiy ko'rsatkich hokimiyatga egalik darajasidir. Siyosiy elitalar olly, o'rta qatlam, mamuriy elitalarga bo'linadi.²

"O'ly elita"ni qarorlar qabul qiluvchi yoki bu jarayonga bevosita ta'sir etuvchi odamlar tashkil etadi. Ularning soni unchalik ko'p emas. Rivojlangan demokratik davlatlarda har bir million aholiga oliy eliraning 50 vakili to'g'ri keladi. "O'rta elita"ga mansublik daromad miqdori, kasbiy maqomi, ma'lumoti kabi uch ko'rsatkich asosida aniqlanadi. O'rta elitaga katta yoshdagi aholining 5% mansub, deb hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarning bitta yoki ikkitasi yoq bo'lganda, nomzod "marginal elita"ga mansub, deb hisoblanadi.

Ma'muriy elitaga yuqori darajadagi davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar kiradi. Elitalarning eng muhim turlaridan yana biri iqtisodiy elitadir. Unga yirik mulk egalari, sanoatchilar, eng boy odamlar kiradi. Iqtisodiy elita aholi bandligi, ish haqi, odamlar daromadlari kabi muhim omillar bilan belgilanadi va o'z iqtisodiy hokimiyati, moliyaviy hukmronligiga tayanadi.

Elitaning yana bir turi harbiy elitadir. U siyosatda hal qiluvchi vosita sifatida qo'llanadi, jamiyat hayotida siyosiy jarayonlarda muhim ro'l o'ynaydi.³

Ilmiy texnik elita intellektual elitaning eng saralangan qismini o'z ichiga oladi. Uning ahamiyati fan- texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Ma'naviy va madaniy

¹ Akhmedjanova, F. D. (2022). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 819-823.

² Almond, Gabriel A. "Political Science: The History of the." A new handbook of political science 75-82 (1996): 50.

³ Lasswell, H.D., 2017. The future of political science. Routledge.



elita san'at, adabiyot, marifat va ijodkorlarning eng nufuzli qismidan iborat. Elitalarning boshqa turlariga yashirin va muxolif elitalar kiradi.

Siyosiy elitalar tarkibiga kimlar kiradi? Ularning tarkibiga: olly rahbar kadria, boshqaruvchilar va katta obro'ga ega bo'lgan g'oyaviy ish bilan shug'ullanuvchilar, intellektuallar, artistlar, ruhoniylarning vakillari kiradi. Ammo, elitalar tarkibiga nafaqat boshqaruvda bevosita ishtirok etuvchi shaxs va guruhlar, balki eng ko'zga ko'ringan iqtisodiy va ma'muriy doiralar, ommaviy axborot vositalari, ta'lim-tarbiya muassalarining rahbarlari ham kiradi. Siyosiy elitalar tarkibiga siyosat bilan rasmiy jihatdan bog'langan, lekin siyosiy qarorlar qabul qilinishiga chetdan ta'sirotkazadigan hukmron hukmron sinfnig vakillari ham kiradi.⁴

Siyosat subyektlari orasida elitalar muhim o'rinni egallaydilar. Siyosat- elitalarining mahsulidir. Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri - elita guruhlariga qarshi kurash emas, balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitalar guruhini shakllantirishdir, unda ijtimoiy vakolatlilikning o'z vaqtida sifat jihatdan yangilanib turishini tahminlash, oligarxiyalashuvi, xalqdan begonalashuvi va yopiq hukmron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir. Elitalar ijtimoiy vakolatligiga, uning sifatiga va samaradorligiga elitalarni, a'zolarini tanlab olish tizimi muhim ta'sir ko'rsatadi.

References:

1. Almond, Gabriel A. "Political Science: The History of the." A new handbook of political science 75-82 (1996): 50.
2. Akhmedjanova, F. D. (2022). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 819-823.
3. Lasswell, H.D., 2017. The future of political science. Routledge.
4. Ахмеджанова, Ф. (1970). Творчество прогрессивных поэтов андижанской литературной среды конца XIX в. и начала XX в. Раджи, Мунтазир, Шавки). Автореферат канд. дисс. Ташкент, 10-11.

⁴ Ахмеджанова, Ф. (1970). Творчество прогрессивных поэтов андижанской литературной среды конца XIX в. и начала XX в. Раджи, Мунтазир, Шавки). Автореферат канд. дисс. Ташкент, 10-11.